

ANTROPONIMLARNING ANTROPOSENTRIK PARADIGMA ASOSIDA O'RGANILISHI

Lolaxon Saidova Mahammadjanovna,

Andijon davlat chet tillar instituti

Frantsuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

lolaxon1974@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada olimlarning antroposentrizm nazariyalari asosida inson omilining til va borliq bilan munosabatlari tahlil etiladi, shuningdek, antropolimlarning ikonik belgi sifatidagi qarashlar, ularning antroposentrik paradigma xususiyatlari, olimlar tomonidan shakllantirilgan tasniflari yoritilgan.

Kalit so'zlar: antroposentrik paradigma, antropolimlar, inson omili, atrof-muhit

ИЗУЧЕНИЕ АНТРОПОНИМОВ НА ОСНОВЕ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЫ

Саидова Лолахон Махаммаджановна,

Преподаватель кафедры теории и практики французского языка

Андижанский государственный институт иностранных языков

Аннотация: В данной статье анализируются взаимоотношения человеческого фактора с языком на основе теорий антропоцентризма ученых, а также освещаются взгляды на антропонимы как на знаковые признаки, особенности их антропоцентрической парадигмы, классификации, сформулированные учеными.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, антропонимы, человеческий фактор, окружающая среда

THE STUDY OF ANTHROPONYMS ON THE BASIS OF THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM

Lolakhan Saidova Mahammadzhanovna,

Lecturer of the Department of Theory and Practice of the French Language

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the relationship of the human factor with language on the basis of the theories of anthropocentrism of scientists, and also deals the views of anthroponyms as iconic characters, their features of the anthropocentric paradigm, classifications formed by scientists.

Keywords: anthropocentric paradigm, anthroponyms, human factor, environment

Kirish

Tilshunoslikda matnni antroposentrik paradigma asosida o'rganish asosan lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi. Antroposentrik paradigma tilni o'ziga xos xususiyatlarini o tarzda, ya'ni o'z egasidan ayro holda

tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandi[1, 262-263]

Antropotsentrizm soʻzi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum - markaz maʼnosini bildiruvchi soʻzlar birikuvidan hosil boʻlgan[2].

Antropotsentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining “Inson – koinot markazidir” degan gʻoyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qoʻllangan boʻlib, bu gʻoya ayniqsa Oʻrta asrlarda Yevropada keng tarqaldi[3,8].

Til har doim etnosning belgilovchi omil sifatida tan olingan. Gumboldt, Benvenist, Shtayntal, Potebniya kabi olimlar til va madaniyat, til va inson haqida oʻz izlanishlarida fikr mulohazalar keltiradi. Lekin XX asrning birinchi yarmidan boshlab tilni etnos bilan bogʻlab oʻrganish ikkinchi planga oʻtdi va til oʻz-oʻzidan hamda oʻzi uchun koʻrib chiqila boshlandi. Voloshin oʻn yil davomida til va inson muammosi bilan shugʻullandi va tildagi qonuniyat inson omili bilan bogʻliqligini anglab, ushbu muammoni yechimini topishga eʼtibor qaratadi.

Adabiyotlar tahlili

Shu davrdan boshlab, tilshunoslikda antroposentrizm muhim ahamiyat kasb etdi. Antroposentrizm paradigmasiga koʻra, inson dunyoni «oʻzini anglash, undagi nazariy va obʼektiv faoliyat orqali» oʻrganadi va bu unga «antroposentrik ongda narsalar tartibini yaratish» huquqini beradi, bunda ong ifodalanayotgan soʻzning mohiyatini, motivlarini, qadriyatlarini belgilaydi.

Anʼanaviy tilshunoslikda 3 ta ilmiy paradigma ajratib tadqiq etildi:

- 1) qiyosiy-tarixiy (19-asr tilshunosligiga xos va qiyosiy usulga asoslangan),
- 2) tizimli — tarkibiy (markazda-soʻz boʻlgan),
- 3) antroposentrik, «inson borliqdagi barcha narsalarning oʻlchovi maqomida aksi»[4, 64-72].

Ushbu paradigma doirasida tilda inson ishtiroki va insonning tildagi oʻrni oʻrganiladi[5].

Antroposentrik paradigma, shuningdek, oʻzaro bogʻliq boʻlgan 4 yoʻnalishga boʻlinadi.

1) til insonning ko'zgusi sifatida o'rganiladi. Bu erda dunyoning asosiy tasviri, asosiy vazifa — insonning tilda o'zini qanday aks ettirishini o'rganish nazarda tutiladi.

2) kommunikativ tilshunoslik - tilni aloqa jarayoni vositasi sifatida o'rganadi,

3) kognitiv tilshunoslikda insonning kognitiv jarayonida tilning rolini o'rganadi,

4) tilning insonni o'zida qanday mavjudligini aniqlashga qaratilgan jarayon (ona tili nazariyasi). Bu nazariya asoschisi Boduen de Kurten «til faqat individual holda faqat ongda, ruhda, jamiyatni tashkil etuvchi shaxslarning ruhiyatida mavjud» deb hisoblagan[6].

Til murakkab hodisadir. Tilni borliqda aks etishini Y.S. Stepanov uni bir nechta tasvirlar shaklida taqdim etdi:

1) til shaxs tili sifatida;

2) til tillar oilasining a'zosi sifatida;

3) til tuzilish sifatida;

4) til tizim sifatida;

5) til turi va xarakter sifatida;

6) til kompyuter sifatida;

7) til fikr maydoni va «ruh uyi» sifatida [7].

XX asrning oxirida til madaniyatning muhim tarkibiy qismi, madaniy kodlarni shakllantirish omili sifatida qaraldi. Tilni o'rganish uchun yangi munosabat va maqsadlar paydo bo'ldi.

Tilni shakllanishida antropotsentrik paradigma «lingvistik muammolarni inson va uning madaniyatdagi o'rni tomon burilishiga olib keldi, chunki madaniyat va urf-odatlar diqqat markazida lingvistik shaxs turli xilda namoyon bo'lishi kuzatildi: men jismoniy, men ijtimoiy, men intellektual, men hissiy, men nutqiy fikriy kabi»[6]. Shaxsning bu turda aks etishi atoqli otlarda ham o'z aksini topadi.

O'zbek tilshunosligida til birliklari XXI asr boshlaridan antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etila boshlandi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar kognitiv tilshunoslik nazariyasi, matnning sotsiolingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, matnning diskursiv-kognitiv jihatlari, publitsistik matnning

mazmuniiy persepsiyasi, o'zbek bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik tadqiqi hamda antropotsentrik paradigmaning nazariy muammolariga bag'ishlangan[8,35-39].

O'zbek tilshunosi N.Mahmudov tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi xususida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Tilning ana shunday ob'ektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning "inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini, insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi"[9, 6-7].

Natija va muhokamalar

Lisoniy jarayonda bosh vazifani bajaruvchi shaxs omilini o'rganish tilshunoslikning turli yo'nalishlarida chuqurlashib bormoqda. Shuningdek, antroposentrik yondashuv shaxs bilan bog'liq tadqiqotlarda mustaqil paradigma sifatida o'z mavqeini mustahkamlab rivojlanmoqda.

E.Begmatov o'z ilmiy izlanishlarida e'tiborini "antroponimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material bera oladigan xususiyatlar"ni[8] aniqlashga qaratgan. Olim antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog'liq ekanligi, ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo'lishi, inson nomida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma'naviy va etnik qarashlari o'z ifodasini topganligi, umuman, ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmushi bilan bog'liq ekanligi ularni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish uchun asos bo'la olishini e'tirof etadi[8].

Antroponimlarni antroposentrik paradigmada o'rganish quyidagi tasnifni shakllantiradi:

- 1) lingvistik tadqiqda insonni birinchi o'ringa olib chiqadi,
- 2) til insonning asosiy xususiyatini kasb etadi,
- 3) madaniyat va tilning antropotsentrik mohiyati ular insonga xizmat qiladi va ularsiz hech qanday ma'no yuzaga chiqmaydi,

- 4) antropotsentrizm zamonaviy tilshunoslikdagi paradigmalarda namoyon bo'ladi,
- 5) til shaxsiyati va kontsepsiyasi — asosiy kategoriyalar bo'lib, so'zlovchining nutqni qayta tiklash vositasidir.

Shu o'rinda, antropotsentrizm tamoyillariga tayanib, atoqli otlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish doirasida V.Mayertaler tomonidan taklif qilingan ikonik belgilarni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Ikonik belgi til birligi sifatida prototipining markeri vazifasini bajaruvchisi deb talqin qilinadi. Ushbu xususiyatlar ikonik belgining semantikasidagina emas, balki uning morfologik xususiyatlarida va sintaktik kategoriyalarida ham o'z ifodasini topadi. V. Mayertaler grammatik tizim modelida lingvistik shaxsning kommunikativ faoliyatini tahlil qilish jarayonida uni konstruktiv xususiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Mayertalerning so'zlariga ko'ra, grammatik tizim immanent ravishda uch bosqichli: birlamchi (chuqur, yadro) qatlam lingvistik shaxsning genotipik (neyrobiologik) antropogen xususiyatlarini aks ettiradi; uning yadrosini o'rab turgan ikkinchi qatlami universal pragmatik-kommunikativ xususiyatlarni aks ettiradi, uchinchi, sirt qatlami uning lingvistik-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

V.Mayertaler grammatik tizimining modeli til birliklarining tegishli ma'nolarini, shu jumladan, atoqli otlarni shakllantirish mexanizmining umumiy parametrlarini aniqlashtirishga yordam beradi. Darhaqiqat, agar V.Mayertalerning talqinida o'zimizning shaxsiy ismimizni ma'nosi so'zlovchi tomonidan belgilangan referent va aktuallashtirilgan sinfni tashkil etuvchi semalarining leksik semalari bilan o'zaro bog'liq referentni aks ettiruvchi fakultativ leksik semalar kombinatsiyasidan iborat deb olinsa[10,3], grammatik tizimning vertikal kesimi o'rtasidagi o'xshashlik atoqli otning aktual ma'nosi aniq ko'rinishda aks etadi. Ushbu o'xshashlikning mavjudligi to'liq nominal hamda nominativ birlikning semantik va grammatik xususiyatlari, shu jumladan, atoqli otning faoliyati davomida biror lingvistik shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirisiz o'ziga xos xususiyatlarini aks ettira olmaydigan ma'lum bir yaxlitlik ekanligini ko'rish mumkin.

Til birliklari faoliyatida antropogenlikning namoyon bo'lishini o'rganishda agar antropotsentrizm o'zining ijtimoiy-madaniy va milliy-madaniy variantlariga ega bo'lgan global universal semantik kategoriya sifatida qaralsa, umumiy nuqtai nazardan kelib chiqib, uning lingvistik mazmuni «inson – atrof-muhit» tizimi elementlari o'rtasidagi munosabatlarning semiologik vositachiligi bilan belgilanadi»[11]. Shu bilan birga, tilni tahlil qilishda antropotsentrik paradigmaning amaldagi nominativ birliklaridan foydalanish «tabiiy grammatika»ning ma'lum bir tomonini yengishga imkon berishini ta'kidlash muhim ko'rinadi: chunki an'anaviy grammatika «tabiiy grammatika»dan farqli o'laroq, antropotsentrizmga yo'naltirilgan zamonaviy tadqiqotlar nafaqat prototiplarning neyro-biologik xususiyatlarini antropotsentrik deb hisoblaydi, balki til birligi semantikasida paydo bo'ladigan kognitiv tuzilmalar tufayli yuzaga keladigan mentalitet xususiyatlarini ham hisobga oladi.

Antropotsentrik tendentsiyalarni hisobga olgan holda, olimlar nutq semantikasini atoqli ot bilan shakllantirishning lingvistik mexanizmini o'rganishda atoqli otning funksional maqsadi, bunda inson o'ziga xos individual identifikator sifatida xizmat qilishi, vaziyat va kontekstning o'ziga xos sharoitlarida informatsion ravishda til belgisi sifatida harakat qilishi kabilarga e'tibor qaratadilar.

«Inson-atrof-muhit» munosabati doirasida o'z shaxsiy ismlarini o'rganishda shaxsiy ism-bu dunyoni «o'z» va «begona»sohalarga xronotipik ajratishning muhim printsipini aniq amalga oshiradigan til birligi ekanligini ko'rsatadi. Shaxsiy ismlar «men-bu erda – hozir – bu» / «u erda – u erda» kategorik qarama – qarshilik doirasida ma'nolarni muntazam ravishda amalga oshirish natijasida «o'z» va «begona» sohalarining markerlari bo'lib xizmat qiladigan til vositalari tizimining tarkibiy qismi sifatida kompleks, baholovchi-deyktik birlik sifatida ishlaydi.»[11]

Deyksis va baholashning birligi tabiatan antropotsentrik bo'lganligi sababli, atoqli otning har qanday so'zlar bilan bog'liq ishlatilishi, ya'ni uning referenti aniq yoki yashirin, birlamchi yoki ikkilamchi bo'lishi hamda tor yoki

keng ma'noda foydalanish sharoitida baholovchi-deyktik ma'nolarining boyligini amalga oshiradi.

Atoqli otlar sub'ektiv modallik sohasiga tegishli bo'lsa-da, aksiologik o'zgaruvchanlikning keng doirasi bilan ajralib turishiga ko'ra [12], ularni tasniflash mumkin. Mazkur tasniflar uchun «inson – atrof-muhit» tizimining elementlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy koordinatlar zamon va makon ekanligi nazarda tutiladi.

Xulosa

Xulosa qilsak, antroponimlarni o'rganish jarayonida antropotsentrik paradigma asosida o'rganishning epistemologik ahamiyati muqarrar ravishda aloqa ishtirokchisi turli xil bilimlarga tayanib, insonlarning ismlarini zamon va makonda o'zgarib turuvchi til birligi sifatida anglashga olib keladi. Lingvistik shaxsning atqli ot bilan nomlash o'zini namoyon qilish uchun maxsus lingvistik vosita, shuningdek, uning «men»ini bilish uchun belgilangan til belgisi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild. – B. 262-263.
2. [http // ph.ras.ru// elib 0215 html](http://ph.ras.ru//elib/0215.html): Новая философская энциклопедия.
3. Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальная исследование. – Москва: 2011. – Б. 8.
4. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании// Филологические науки. – 2001. – №1. – С.64-72.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. Пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр Академия, 2001. – 208 с.
6. Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.
7. Кущева О.Ю. Антропоцентрическая парадигма в современной лингвистике <https://cyberleninka.ru/article/n/antropotsentricheskaya-paradigma-v-sovremennoy-lingvistike>
8. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39.
9. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.
10. Семенова Т.Н. Антропонимическая индивидуализация: когнитивно-прагматические аспекты. Москва: Готика, 2001.

11. <https://human.snauka.ru/2016/03/14369>

12. Лингвистика и аксиология: этносемиотика ценностных смыслов: коллективная монография. М.: ТЕЗАУРУС, 2011.